

DIDAKTIK PRINSIPLAR TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

JIYANOV OYBEK PARDABOYEVICH

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

TATU Samarqand filiali

“Axborot ta'lim texnologiyalari”

kafedراسi katta o'qituvchisi

+998933329487

01051987oybek@gmail.com

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik jarayonlar, ta'lim jarayonlarida didaktik prinsiplardan samarali foydalanish yo'llari va tizimning nazariy asoslari izohlangan.*

Kalit so'zlar. *Ta'lim, didaktika, pedagogika, oliy o'quv yurtlari.*

Ta'lim tizimida didaktik prinsiplar muammosi hamma davrlarda ham olimlar diqqat e'tiborida bo'lgan.

A.A.Raduginning oliy o'quv yurtlari uchun pedagogika fani bo'yicha o'quv qo'llanmasida pedagogik g'oyalarning butun dunyo miqyosida rivojlanishi quyidagi yetti bosqichga bo'lib ko'rsatib berilgan:

- Qadimgi Gresiyada pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi.
- O'rta asrlarda pedagogik g'oyalar.
- Uyg'onish davrida pedagogik g'oyalarning rivojlanishi.
- Yangi va eng yangi vaqtda pedagogik g'oyalar.
- X – XVIII asrlarda pedagogik g'oyalarning rivojlanishi.
- XIX asrda ilmiy pedagogikaning shakllanishi.

Olimning fikricha, ikkinchi bosqichda asosan O'rta Osiyo hududida yashab ijod etgan allomalar pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shuning uchun O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosiga murojaat qiladigan

bo'lsak, bu masala yanada oydinlashadi. Yaqin va o'rta Sharqda o'rta asrlarda fan va ta'lim markazlari diniy o'quv muassasasi - madrasa bo'lgan. Sharqshunos olimlarning ta'kidlashicha, madrasa shaklidagi o'quv muassasalari O'rta Osiyoda paydo bo'lgan va shu yerdan boshqa joylarga tarqalgan. Masalan, somoniylar davrida birgina Samarqandda 20 ga yaqin madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bu muassasalarda nafaqat diniy ta'limotlar, balki tabiiy fan asoslari ham o'qitilgan. Madrasalarda vaqt o'tishi bilan fan asoslarini o'qitish tajribasi rivojlangan.

IX asrda Xorazmiy o'z faoliyatida o'z davriga qadar mavjud bo'lgan pedagogik g'oya, prinsip, metodlarni tahlil qilgan hamda o'quvchining mustaqilligiga, ijodiy faolligiga katta e'tibor bergan. Xorazmiy o'quvchini kuzatishga, o'rganishga katta e'tibor qaratgan. U o'tmish olimlarining mehnatini va fanning maqsadi hamda vazifasini tushunishni yuqori baholagan.

Al-Forobiy (IX asr) esa har qanday fanni o'rganishda 3 ta shartga amal qilish kerak deb ta'kidlaydi:

- Aniq prinsiplarga amal qilish.
- O'rganilgan bilimlar asosida xulosalar chiqarish.
- Boshqa mualliflarning fikrlariga tanqidiy munosabatda bo'lish.

Forobiy har qanday nazariyani qurishda, birinchidan, prinsiplarni bilish, ularni ishlab chiqish, prinsiplardan talab va qoidalarni ajratish, ikkinchidan, tanqidiy tahlil qilish kerak deb ta'kidlagan.

Ibn Sino (XI asr) fikricha, inson shaxsining shakllanishiga ta'sir etadigan omil ta'lim mazmunidir. Ya'ni o'quvchi fan predmeti prinsiplarini hamda aloqalarini bilishi kerak. O'rta asr davrida O'rta Osiyoda, aniqrog'i hozirgi O'zbekiston Respublikasi joylashgan hududda fan, adabiyot, san'at, pedagogik g'oyalar tez sur'atlarda rivojlangan. O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini to'g'risida ingliz tarixchisi D.J.Bernald shunday yozadi: "O'rta Osiyolik olimlar rivojlanayotgan fan yaratdilar, bu olimlar grek matematikasini, astronomiya va meditsina fanlarining tor asosini kengaytirdilar, algebra, trigonometriya va optika fanlarining asosini yaratdilar

hamda ular kimyo fanida ham muvaffaqiyatlarga erishdilar”¹. Demak, O‘rta Osiyo xalqlari butun dunyoning boshqa xalqlaridan ham oldin ta’lim-tarbiya tizimini samarali tashkil etish zarurligini anglab yetganlar; o‘quv tarbiya jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida boshqalardan ko‘ra ko‘proq g‘amxo‘rlik qilganlar. O‘quv tarbiya muassasalarini o‘quv moddiy, texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar tayyorlash to‘g‘risida fikr yuritganlar. Ta’kidlash joizki, uyg‘onish davrida amaliy pedagogik faoliyat bilan, ta’limning samarali vosita, metod, shakllarini izlash bilan bog‘liq tadqiqotlar O‘rta Osiyodagi barcha ilmiy markazlardagi olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. “Dunyoning biror o‘lkasida uchramagan hodisaning guvohi bo‘ldik, deb yozadi N. Shodiyev, Ibn Sino Yevropada Avesenna nomi bilan ma’lum, g‘arb Aristotelni Ibn Sino orqali o‘qishni o‘rgandi; Al-Beruniyni Yevropada Albaron nomi bilan atashadi. Mirzo Ulug‘bekni yevropaliklar Samarqandni astronomiyaning markaziga aylantirgan deb bilishadi. Al-Xorazmiyni Yevropa algoritm nomi bilan biladi va h.k.”². Bularning barchasi bizning xalqimiz namoyandalari hisoblanadi. Bular fanni o‘quv jarayoni bilan bog‘lashga, ta’limda nazariyani amaliyot bilan bog‘lashning asosini yaratishga harakat qilganlar. Mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlar hamda pedagogik va didaktik manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, O‘rta Osiyo olimlari, xususan, O‘zbekiston hududida yashagan olimlar uyg‘onish davrida birinchilardan bo‘lib diqqat markazga didaktik yondashuvni qo‘ya billganlar.

Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mahmud Qoshg‘ariy, Burhoniddin Zarnudjiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy asarlarini o‘rganishdan ma’lum bo‘lishicha, ular maktab va madrasalarda o‘qitishning ilmiy va amaliy asosini yaratishga, ta’lim-tarbiya vositasini, metodini, shaklini, prinsiplarini ishlab chiqishga, o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi rolini aniqlashga, unga qo‘yilgan talablarni tizimlashtirishga harakat qilganlar. Jumladan, al-Forobiy ta’limni hayot bilan bog‘liqligi to‘g‘risida shunday deydi: “Bu turga tegishli bilish harakati

¹ Фарберман.Б.Л, Р.Г.Мусина. Концепция конвергенции и интеграции подходов к обучению, ориентированных на ожидаемый результат учению и на процесс развития мышления. // Сб.международн. науч. трудов.-Гулистан: 2003.

² Хайдарова О. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнига технологик ёндашувга тайёрлаш. Пед.фан.ном. диссертация.-Карши: 2004.

tugallangan harakatni bildiradi, agarda bu bilgan narsangizni amalda qo'llamasangiz, u maqsadsiz va ma'nosizdir". Al-Beruniy (XI asr) ta'limga ilmiy yondashuv, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, fanning hayot bilan bog'liqligi, ketma-ketlik, uzluksizlik, tegishlilik prinsiplarini yuqori o'ringa qo'ygan.

Ibn Sino (XI asr) o'z asarlarida tegishlilik va urg'u berish prinsiplarini, yengildan og'irga, ma'lumdan noma'lumga borish prinsiplarini hamda didaktik qoidalarni ilgari suradi. "Umumiydan xususiyga, xususiydan umumiyga", "Oddiy fikrlarni bilmasdan turib murakkab fikrlarni bilish mumkin emas". Burhoniddin Zarnudjiy (XII asr) ta'limda izchillik va ketma-ketlik prinsiplarini ta'kidlagan. U XII asrda "birinchi bo'limni o'zlashtirmasdan ikkinchisi bilan shug'ullanma" qoidasini tan olgan, dunyoda birinchilardan bo'lib, ta'lim jarayonida asosiy narsa o'quvchilarning faolligi va mashg'ulotdagi tizimlilikdir deb ta'kidlagan. "Bilim izlayotganlar uchun harakat, xohish va doimiy mashg'ulot zarurdir". Ibn Sino (XI asr) o'zining "Donishnoma" asarida ta'lim jarayonini bir butun jarayon sifatida qaragan. "Biz bilmagan va bilishni xohlagan narsalarni, avvalgi bilgan narsalarga asoslanib bilishimiz mumkin", deb ta'kidlagan. Butun dunyo olimlari ichida birinchilardan bo'lib ta'limda ilmiylik, ko'rgazmalilik, ketma-ketlik, izchillik, tizimlilik, onglilik, faollik prinsiplarini O'rta Osiyoda yashab ijod etgan allomalarimiz anglaganlar. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan ensiklopedik olimlarimizning merosi bugun dunyo miqyosida e'tirof etilmoqda.

O'rta asrlarda Sharq olimlari bilishning asosiy qonuniyatlarini nafaqat ta'lim jarayonining rahbar g'oyasi sifatida, balki axloqiy tarbiya jarayonida zarurligini ta'kidlaganlar. Al Kindiyning ta'kidlashicha, "matematik bilimlarni bilish, insonning axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi uchun zarur"³. Bu yerda Kindiy ta'limda ilmiylikni nazarda tutyapti. Al Kindiy taqdim etgan fanlarning tavsifnomasida matematika, mantiq, fizika asosiy deb ta'kidlanadi va ular asosida falsafiy, axloqiy-siyosiy bilimlarni o'zlashtirish mumkin deb aytiladi hamda bularni o'rganishda tizimlilikka, ketma-ketlikka amal qilish zarurligi e'tirof etiladi. Al-Forobiy ham o'quv materialni o'rganishda materialning mosligi, ko'rgazmaliligi

³ Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар.- Т.: Ўз.Р.ФА.Фан. 2000.

talablariga amal qiladi.

Bu borada mutaxassislar erishgan yutuqlar bilan birga shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, hozirga qadar o'qitish prinsiplari tizimining ilmiy asoslari mukammal ishlab chiqilmagan. Ta'lim jarayonini rivojlantirish prinsiplari boshqa didaktik kategoriyalar kabi pedagogika fanining zamonaviy taraqqiyot darajasi va yosh avlodni tarbiyalash sifati talablari asosida aniqlashtirilishiga muhtojlikni sezmoqda. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitish prinsiplari ijtimoiy hayotning o'zgarishi, pedagogika fanining rivojlanishi bilan o'zgarib turadi: ayrim didaktik prinsiplar yo'qoladi, o'rniga yangi didaktik prinsiplar kirib keladi. Biroq har bir o'qitish prinsipi u yoki bu didakt olim tomonidan prinsiplar tasnifiga kiritilgan. Masalan, Ya.L.Kashanskiy tomonidan tabiiylilik, moslik, ko'rgazmalilik, ta'limda ketma-ketlilik, K.V. Yelniskiy tomonidan ta'limda onglilik, N. Skvorsova tomonidan tarbiyada yakka holda o'qitish prinsipi, faollilik, I.A.Lashkareva tomonidan tarbiyada predmetlararo aloqadorlik, S.M.Mixaylov tomonidan tarbiyada tarixiylik, M.I.Maxmutov tomonidan tarbiyada muammoli prinsiplar, V. Okon tomonidan tarbiyada samaradorlilik, Yu.K.Babanskiy tomonidan tarbiyani maqbullashtirish, S.M.Rives tomonidan faollik, moslik, Ye.N. Medinskiy tomonidan tizimlilik, o'qituvchining yetakchilik faoliyati, Z.Mirtursunov tomonidan ta'lim va tarbiya birligi, I.T.Ogorodnikov tomonidan ilmiylik, M.A.Danilov tomonidan g'oyaviylik, tarixiylik, S.M. Mixaylov tomonidan tarbiyani go'zallashtirish prinsipi didaktikaga olib kirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фарберман.Б.Л, Р.Г.Мусина. Концепция конвергенции и интеграции подходов к обучению, ориентированных на ожидаемый результат учению и на процесс развития мышления. // Сб.международн. науч. трудов.-Гулистан: 2003.
2. Ҳайдарова О. Бўлажак ўқитувчиларни таълим жараёнига технологик ёндашувга тайёрлаш. Пед.фан.ном. диссертация.-Қарши: 2004.
3. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар.- Т.: Ўз.Р.ФА.Фан. 2000.

4. Холматов Ш. Ўқув жараёнида технологик ёндашув асосида таълим этишнинг дидактик имкониятлари./Ўқув-методик қўлланма. Гулистон. 2006.
5. Маттиев И. Б. (2016). Некоторые направления государственной политики здоровьесбережения как педагогический фактор формирования здорового поколения. Бюллетень науки и практики, (10 (11)), 358-363.
6. Mattiev I. B. THE IMPORTANCE OF DISTANCE EDUCATION IN INDEPENDENT EDUCATION //Conference Zone. – 2022.